

---

## "SOLIQCHI-KO'MAKCHI" TAMOYILI ASOSIDA SO'X TUMANIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR



### **"Soliqchi-ko'makchi" tamoyili asosida So'x tumanida amalga oshirilayotgan ishlar**

Tadbirkorlik sub'ektlari va aholi bilan o'tkazilgan ochiq muloqotlarda bildirilgan takliflarni inobatga olgan holda faol ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va yanada rag'batlantirish, solik majburiyatini bajarishda aholi tomonidan ortiqcha xarajatlarga yul quymaslik, shunindek qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish maqsadida joriy yil 14-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-192-sonli qarori qabul qilindi.

Qarorga ko'ra 2023-yil 1-iyun kuniga quydagilar hisobdan chiqarildi:

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i "noturar ko'chmas mulk ob'ektlari bundan mustasno" buyicha muddatida tulamagan qarziga hisoblagan penya summalari;

Xujalik yurituvchi sub'ektlarning tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha mudatidan o'tgan debitor qarzdorligi uchun qo'llanilgan jarimalar summalari.

Ushbu soliq qarzi penya va jarimalar undirish bilan bog'liq sud va ijro ishlari tugatiladi.

2024-yil 1-iyungacha yer uchaskalaridan xujatlarsiz foydalaniyotgan jismoniy shaxslarga yer solig'ining 3 karra oshirilgan stavkasida soliq hisoblash tartibi to'xtatiladi.

Biz soliq idoralari xodimlari bundan buyon ham albatta Prezidentimiz belgilab berganlaridek tadbirkorga maslixatchi ko'makchi va yaqin hamkor sifatida faoliyatimizni davom ettiramiz.

### **Faridjon To'raboyev - So'x tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i**

#### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-07-08 16:38:22